

SHARQIY USTYURTTA O'SUVCHI MADANIY O'SIMLIKLARINING YOVVOYI AJDODLARIDAN BIRI AGROPYRON DESERTORUM SCHULT. NING HOZIRGI HOLATINI BAHOLASH

A.B.Ajiev – biologiya fanlari doktori (DSc), professor

E.T.Allamuratov – stajyor-tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Ustyurt platosi, endemiklar, noyob turlar, tsenopopulyatsiya holati, Agropyron desertorum.

Ключевые слова: плато Устюрт, эндемики, редкие виды, статус ксенопопуляций, Agropyron Desertorum.

Key words: Ustyurt plateau, endemics, rare species, xenopopulation status, Agropyron desertorum.

Ustyurtning Qoraqalpog'iston bo'limi O'zbekiston Respublikasining g'arbida joylashgan bo'lib, sharqidan asosiy qismi cho'lga aylangan Orol dengizi bilan chegaradosh. Ustyurtning umumiy maydoni 27,2 mln ga bo'lip, shundan 7,2 mln ga Qoraqalpog'iston hududiga to'g'ri keladi [4:1, 245; 6:7, 335].


Ustyurt asosan 160-300 m balandlikdagi (dengiz sathidan) platodan tashkil topgan. Uning sharqida (Aqtumsuq burni atrofi 219 m), markazida (207 m) va janubi-g'arbida (Qorabaur ko'tarilmasi, 275 m) bir nechta baland joylar mavjud. Asosiy botiqlari Borsa-kelmas sho'rhog'i (dengiz satqidan 50 m), Asaka ovdan cho'kmasi (dengiz satqidan 29 m) va Sariqamis ko'li bo'lib sanaladi. [5:5].

O'rta Osiyoni va Qozog'istonning, shuningdek O'zbekistonning botanika-geografik rayonlashtirilishiga ko'ra, Ustyurt platosi Shimoliy Turon provintsiyasining Shimoli-G'arbiy Turon kichik provintsiyasiga tegishli [2:13,18].

Ustyurt iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozning quruq issiqligi va qishining qattiq bo'lishi bilan ajralib, kuchli shamollar, atmosfera yog'inlarining kam muqordoda bo'lishi (70-110 mm/yil), barqaror bo'lmagan qor qoplami, yuqori o'zgaruvchanlik va yilning fasllariga va kunga qarab haroratning keskin o'zgarishi bilan ifodalanadi. Mutloq maksimal harorat +45,5°C (iyul), -37°C (yanvar). Kundalik havo harorati +10°C ga o'tish sanasi aprel oyining uchinchi on kunligidir. Qishda tuproq 5-15 sm chuqurlikda muzlaydi. Umumiy quyosh radiatsiyasi 130-140 kkal/sm²ga etadi, [2:13-18-b., 3; 261-267-b.] radiatsiya balansi esa yiliga 45-50 kkal/sm²ni tashkil qiladi.

A.Ajiev (2023) ma'lumotlariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida uchraydigan oliy o'simliklarning madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining tarkibi tahlili xulosasidan 39 oila, 117 turkum va 171 turdan iborat bo'lib, kamida 6 xil xo'jalik qimmatli turlar guruhi mavjudligi aniqlandi. Ulardan 140 tasi yem-xashak, 79 tasi oziq-ovqat, 44 tasi asal beruvchi, 119 tasi dorivor, 75 tasi texnikaviy o'simliklardir (1-rasm).


Eng ko'p bo'lgan yem-xashak guruhi 140 turni tashkil etib, eng ko'p soni 27 tur bilan ifodalangan Chenopodiaceae oilasiga to'g'ri keldi. Poaceae oilasi 25 tur, Fabaceae 15 tur bilan ifodalanadi. Keyin Brassicaceae oilasi 13, Asteraceae 9 va Polygonaceae 7 tur o'simlik bilan ifodalandi.



1.Rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining iqtisodiy qimmatli guruhlarga taqsimlanishi. [A.Ajiev (2023) ma'lumotlariga ko'ra]

B.Sariboev (1987) ma'lumotlariga ko'ra Ustyurt florasida 60 tuqimlas, 295 turkum, 724 tur quraydi. Oilalar spektrida etakchi o'rinni ko'p yillik o'simliklar Chenopodiaceae, Asteraceae, Brassicaceae, Poaceae va Fabaceae egallaydi, undan keyin bir yillik o'simliklar, ikki yillik o'simliklar butalar va daraxtlar.

Tadqiqot ob'ektlari: 2024 yil tashkil etilgan ekspeditsiyalar davomida Qoraqalpoq Ustyurt florasida biologik xilma-xillikni saqlash tamoyillarini integratsiya qilish, o'simliklar tsenotik populyatsiyalari shu jumladan madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining *Agropyron fragile* (Roth.) P. Candargy, *Agropyron desertorum* Schult. hozirgi holatini o'rganidik.



2-Rasm Agropyron desertorum Schult.

tsenopopulyatsiyasining joylashuvi

Agropyron fragile (Roth.) P. Candargy (Sibir bug'doy o'ti yoki mo'rt) tabiiy sharoitda G'arbiy Sibir, Quyi Volga, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonning qumli dashtlarida o'sadi. Ukraina janubida va Kavkazda ham topilgan. Rossiyaning janubiy-sharqiy hududlarida qishloq xo'jaligida qo'llaniladi.

Agropyron desertorum Schult. (Cho'l bug'doy o'ti) Kaspiy bo'yi pasttekisligi va cho'l dashtlarida uchraydi. Qurg'oqchilikka eng chidamli turlar.

Ko'p yillar davomida qayta-qayta o'stirilishi mumkinligi sababli *A.desertorum* qishloq xo'jaligida foydali ekinga aylandi. Bu o'simlik turi oddiy yaylov ekinlari sifatida ishlatiladigan turli xil bug'doy o'ti hisoblanadi. Gullar: mayda, yashildan binafsha ranggacha, boshloqlarda joylashgan.

U ayniqsa, inson oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun boqiladigan go'shtli qoramollar uchun ishlatiladi [7]. To'pgullari: ro'vak, boshqosimon (zich) ro'vok.

Meva: donli yoki turli xil karyopsis

Urug'lar: kichik, qattiq, yaltiroq

Poyasi: tik, balandligi 90 sm ga etadi.

Barglari: tekis, qinlarining cheti tutash

Sovuqqa chidamliligi va qishga chidamliligi yuqori, bu xususiyatlarda u bedadan ustundir. Qurg'oqchilikka chidamliligi yuqori, uzoq vaqt qurg'oqchilikka dosh bera oladi va yog'ingarchilikdan keyin yaxshi o'sadi. Neytral va ozgina sho'rlangan tuproqlarda o'sadi. U hosildorligi bo'yicha bug'doy o'tlarining boshqa turlaridan ustun bo'lib, oz miqdorda chiqindi hosil qiladi.

O't aralashmalarida u dastlabki ikki yilda sekin rivojlanadi, ayniqsa namlik etarli bo'lmaganda, kuzga kelib faqat 1-2 poya hosil qiladi, ekishning atigi 10-15% ni egallaydi. Hayotning birinchi yilidagi butalar har bir o'simlikda 20-30 poyadir.

Ekspeditsiyalar davomida *A.desertorum* Schult. turning 5 ta tsenopopulyatsiyasini topdik. Yashash joylarida tsenopopulyatsiya holatini baholash uchun biz beshta tsenopopulyatsiyasining ontogenetik tuzilishini o'rganidik.

Quyida ushbu 5 ta tsenopopulyatsiyalarning qisqacha eko-fitostenotik hususiyati keltirib o'tiladi. Tsenopopulyatsiyalar joylashgan maydonlarni **GP** etib belgiladik.

GP1 (44°26'49.0"N 58°11'34.2"E). Sharqiy Ustyurtning dala yo'li atroflarida shakllangan *Salsola orientalis* S.G. Gmel jamoasining bir qismi sifatida o'rganildi. Tadqiqot maydonining relefi notekis, chuqur bo'lmagan jarlikta joylashgan. Tuproqg'i gipsli-ohaktoshli, yirik toshlar aralashgan qumoq tuproqlar.

Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 40% dan oshmaydi. Jamoaning floristik tarkibi oz sonidagi (12 tur) turlardan iborat. Jamoa tashkil etuvchisi *Salsola orientalis* 33% qoplam hosil qiladi, *A.desertorum* Schult. ning ulushi qolgan GP2 va GP3 lardan yuqori bo'lib 22% tashkil etadi.

GP2 (44°25'24.7"N 58°11'46.5"E). Ustyurt shimoliy-sharqida qayd etiladi. Mazkur **GP** *Malacocarpus crithmifolius* (Retz.) C.A.Mey jamoasi tarkibida ajratildi. Hudud **GP1** kabi yo'l atroflarida joylashgan, boshqa **GP**larga nisbatan salbiy ekologik omillardan holi sanaladi. Yomg'ir suvlarining yig'ilishi tuproq namligining uzaoq vaqt saqlanib qolishiga va kuchli shamollardan holi bo'lishi, yuvenil o'simliklarning paydo bolishiga muhit yaratmoqta. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35%ni *A.desertorum* Schult. ning ulushi 9% tashkil etadi. Jamoaning floristik turlar soni 19 tadan iborat.

GP3 (44°28'38.7"N 58°11'17.2"E). Rele'fi notekis tuproqg'i gipsli-oxaktoshli, yirik toshlar aralashgan gipsli tuproqlar, Sho'rhoq maydonlar ham uchraydi. Ayirim joylarda ona jins qatlamlari ko'rinib turadi. GP 10-15 metrlik jarlikta joylashgan. Hudud antropogen omillarning ta'siridan holi. Jumladan, bunda o'zida gips saqlaydigan va ohaktoshdan tashkil topgan chink ustunlarining emirilishidan hosil bo'lgan jarlikdir. O'simliklar uchun asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida yomgir suvlari jarliklarni o'pirishi va yuvilishi. Shu bilan birgalikda, yumronqoziqlarni haddan tashqari faoliyatini salbiy tasir etuvchi omillar jumlasiga kiritish mumkin. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35-38% dan oshmaydi. Floristik tarkibi 14 turni o'z ichiga oladi. Dominant tur *Medicago sativa* L. va *Artemisia diffusa* Krasch. ex Poljakov ko'rsatish mumkin.

GP4 (44°30'39.6"N 58°11'10.1"E). Sharqiy Ustyurtning Chink yo'l bo'yida joylashgan. **GP4** joylashgan jarlikning o'pirilishi xavfi bor, agar bu roy bersa o'simliklar tsenopopulyatsiyasiga qanday ta'sir qilishi no'malum, GP5 singari kuchli shamol ta'sir etuvchi yirik toshli-gipsli tuproqqa ega. Bu ekologik omillar tasirida yosh o'simliklarning paydo bolishiga muhit yaqshi emas, yuvenil va immatur singari yosh spektrlar % juda kam. Lekin jamoa joylashgan tarkibida tuplar soni ko'pligi bilan birgalikta kuchli shamol ta'siri natijasidan o'simliklar bo'ylari boshqa GP o'simliklardan pas. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35-40% tashkil qiladi. *A.desertorum* Schult. ning ulushi 11% dan oshmaydi. Floristik tarkibi unchalik boy emas – 12 ta turdan iborat.



3-Rasm *A.desertorum* Schult. dominant va sodominant turlar sifatida ko'rsatiladigan (GP5)

GP5 (44°30'35.0"N 58°11'18.9"E). Chinkning sharqiy qiyaligida joylashgan. Hudud notekislikdan iborat, yirik toshli-gipsli tuproqqa ega. Antropogen va boshqa ekologik omillarning kuchli salbiy ta'siri mavjud emas. Hudud muntazam kuchli shamol tufayli tuproq eroziyasiga ushramoqta.

Floristik tarkibi unchalik boy emas – 9 ta turdan iborat bo'lib, qoplash da'rajasi 40%. Dominant va sodominant turlar sifatida *Artemisia terrae-albae* Krasch (28%) va *A.desertorum* (Schult) (25%) ning o'zini ham kiritisa bo'ladi. *A.desertorum* Schult. ning ulushi qolgan GP lardan yuqori 25% tashkil etadi.

Turlarning ontogenezini o'rganishda T.A.Rabotnov [11:7, 204] tomonidan taklif qilingan, A.A.Uranov [12:3, 8; 13:7, 33] va uning sho'girdlari tomonidan yanada takomillashtirilgan va batafsil ishlab shiqilgan ontogenezning diskert tavsifi tushinchasi qabul qilindi. Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda o'simliklarning hayotiy tsikli to'rt davrga bo'lingan: latent (yashirin), virginil, generativ va senil.

A.desertorum Schult. tsenopopulyatsiyasining ontogenetik spektrlari: j-yuvenil; im-immatur; v-virginil; g1 - yosh avlod; g2-o'rta yoshdagi generativ; g3-eski generativ; ss-sub-senil; s-senil qilib o'rgandik.

№ GP	Yosh fraktsiyalarining ulushi, %						
	j	im	v	g1	g2	g3	S
Gp1	0	9,88	25,86	38,24	14,76	13,26	-
Gp2	2,28	14,55	27,01	37,21	10,08	8,15	-
Gp3	-	7,19	22,14	27,13	23,32	15,76	4,46
Gp4	-	2,8	15,23	13,48	36,61	26,63	5,25
Gp5	-	4,2	12,76	16,18	33,25	29,92	3,69

1-jadval. *A.desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi.

A.desertorum Schult. tsenopopulyatsiyalari ontogenetik strukturasi qaydagi ontogenetik spektrlarga ega bo'lishi aniqlandi.

Chap tomanlama ontogenetik spektr. Tur tsenopopulyatsiyasi uchun chap tomanlama ontogenetik spektr GP1 va GP2 lar uchun hosdir va ushbu tsenopopulyatsiyalar spektr tartibiga ko'ra dinamik populyatsiyalar, dep baholandi.

GP1 va GP2 lardagi yosh guruhlarning o'zaro uhash fraktsiyalarda taqsimlanganligini aytib o'tish kerak. Unga ko'ra **g1** individlarining ulushi bir biriga yaqin (GP1-38,24%, GP2-37,21%). GP1da generativ oldi novdalarining ulushi 35,74 % tashkil etadi. GP5 kabi yo'l atroflarida tarqalish mazkur tsenopopulyatsiya uchun ham hosdir. Yo'l boyida joylashgan jarlikning eng chekkasida joylashganligi, yomg'ir suvlarning yuvilishi va muntazam kuchli shamol bo'lishi tuproqlarda tuplar yohari zichli va novdalari uncha chuqur bo'lmagan holda joylashgan. GP2 tsenopopulyatsiyada qisman virginil (v) (27,01%) va asosan etuk generativ tuplar (g1) (37,21) ulushining ustunligi bilan GP1 ga ju'da yaqin turadi. Ushbu tsenopopulyatsiya *A.desertorum* Schult. ning (**j**) tuplar uchraydigan yagona tsenopopulyatsiya sifatida ham qarash mumkin. Bizningcha, *A.desertorum* Schult. da ontogenezining immatur bosqichi (**im**) ju'da qisqa davom etadi. Va generativ oldi davrining asosiy bosqichi (**v**) ga to'g'ri keladi. GP2 da bolsa sal boshqacha joy olgan o'simliklarga etarlicha suv mugdori va jarlikta jo'ylashganligi sababli namlikning uzaq vaqt saqlanib qolishi sababli kam sonli bolsa ham juvenil (**j**) lar ko'zga tashlanadi.

Markazlashgan ontogenetik spektr. Tsenopopulyatsiyalarda qayd etilgan generativ individlarning (**g2**) ustunlik qilishi GP4 va GP5 da kuzatildi. Subsenil tuplar ham uchraydi (5,25%). (**g3**) generativ individlarning ulishi (**v**) va boshqa qolgan (29,92%) tsenopopulyatsiyalardan yoqari (GP4, GP5). Agar spektrlar tarkibiga nazar tashlanadigan bolsak (1-jadval), GP3 va boshqa GPlar nisbatan yaqin

individlar tarkibiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Yoqarida takidlaganimizdek, GP3 tuprog'i gipsli-oxaqtoqli, yirik toshlar aralashgan gipsli tuproqlar, Cho'rhoq maydonlar ham uchraydi. Bizningcha GP3ning ontogenetik spektri omillar tasiri sabab nisbatan chap tomonlama spektrga ega.

Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. tuplari soni va shunga ko'ra o'rtacha zichligi eng yohari bo'lgan tsenopopulyatsiyalar sifatida yol yo'qasida joylashgan GP5, GP4 va jar yo'qasida joylashgan GP1 ni keltirish mumkin.

Barcha keltirilgan dalillar shundan iboratki, kamyob turlar saqlanuvchanligi uchun eng ko'p sadir bo'ladigan real tahdid ular evolyutsiyasi davomida moslashgan yashash joylarining buzilishi hisoblanadi.

Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. Tsenopopu-

lyatsiyalarining holati uchun to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va ayniqsa antropogen omillar ko'zga tashlanmaydi. Yoharida ta'kidlanganidek, tur tarqalgan yashash joylaridagi suv tuproq eroziyasi, kemiruvchilar faoliyatini tsenopopulyatsiyalarining holatiga qisman salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida keltirish mumkin.

Ayni ushbu omillar ta'sirida va turning biologik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, *A.desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyalari o'ziga hos struktura shakllantirishi aniqlandi. Agar tahlil etiladigan bo'lsa Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyalari normal, lekin to'liq emas. Jumladan, GP1 va GP3, GP5 tsenopopulyatsiyalarda yuvini (j) tuplarni, senil (s) tuplarning esa GP1, GP2 tsenopopulyatsiyalarda uchramasligi hosdir (1-jadval).

Adabiyotlar

1. Айтмуратова Р.П. Динамика флоры Каракалпакстана / Динамика и потенциал природной среды Каракалпакстана. –Нукус Илим, 2017. –С 78-79.
2. Рачковская Е.И. Природные особенности растительности равнин / Ботаническая география Казахстана и Средней Азии (в пределах пустынной области). –Санкт-Петербург, 2003,С 13-18.
3. Shomuratov Kh., Saribaeva ., Akhmedov A. Distribution pattern and modern status rare plant species on the Ustyurt Plateau in Uzbekistan. // Arida ecosystems, 2015. Vol 5, №4. P. 261-267
4. Zonn I., Glantz M., Kostianoy A., Kosarev A. The Aral Sea Encyclopedia // Berlin Heidelberg: Springer-Verlag 2009. –P. 1-245. Doi: 10.1007/978-3-540-85088-5
5. BSAP. Biodiversity Strategy and Action Plan of Uzbekistan, 1998.-P 5-188
6. Kostianoy A.G., Kosarev A.H. The Aral Sea Environment / The handbook of Environmental chemistry/ -London, Verlag Berlin Heidelberg, 2010. Vol.7.-P. 7-335
7. Биркедал, Э. Дж., Ивааса, А. Д., Джефферсон, П. Г. (2014). Поведение мясного скота при выпасе отличается у диплоидных и тетраплоидных хохлатых пыреев (*Agropyron cristatum* и *Agropyron desertorum*). *Канадский журнал растениеводства*, 94, 851-855.
8. Ажиев А.Б., Бекбергенова Г.С. Изучение дикорастущих сорочичей культурных растений Каракалпакстана из семейства Роасеae Barnbart // Материалы X международной конференции по экологической морфологии растений, посвященной памяти Ивана Григорьевича и Татьяны Ивановны Серебряковых.- Москва (Россия).- 2019.- С.32-36.
9. Ajiev A.B. Prospects for using the gene pool of wild relatives of cultivated plants of the Karakalpak Ustyurt flora // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.- 2021.- p. 95-100.- <http://khorezmscience.uz/en/index/single/3>.
10. E.S. Sulaymonov, X.Q. Haydarov, M.A. hasanov, X.H.Jalov, A.Q. Axmedov, Y.Sh. Toshpo'latov "Botanika fanidan o'quv dala amaliyoti uchun" Tashkent-2015
11. Работнов Т.А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах / Тр. БИН АН СССР.- Москва, Ленинград, 1950. Серия. 3.-вып 6.-С. 7-204.
12. Уранов А.А. Онтогенез и возрастной состав популяций // Онтогенез и возрастной состав популяций цветковых растений. –М.: Наука, 1967, -С 3-8
13. Уранов А.А. Возрастной спектр фитоценопопуляции как функция времени энергетических волновых процессов // Научные доклады высшей школы. Биол. науки.- М.: Высшая школа, 1975, №2.-С7-33
14. https://organiclawn.ru/agropyron_desertorum/
15. https://organiclawn.ru/agropyron_fragile/
16. <https://universityagro.ru/растениеводство/житняк/>

REZYUME. Maqolada Sharqiy Ustyurtta o'siuvchi madaniy o'simliklarining yovvoyi ajdodlaridan biri *Agropyron desertorum* Schult. ning hozirgi holatini baholash, iqtisodiy ahamiyati o'rganish va o'simlikning ontogenezi o'rganish bo'yicha tahlillar olib borilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье *Agropyron Desertorum* Schult — один из диких предков культурных растений, произрастающих на территории Восточной Устюрты. Проведены анализы для оценки современного состояния растения, изучения его хозяйственного значения и изучения онтогенеза растения.

SUMMARY. In the article *Agropyron Desertorum* Schult is one of the wild ancestors of cultivated plants growing in the territory of Eastern Ustyurt. analyzes were carried out to assess the current state of the plant, study its economic significance and study the ontogenesis of the plant.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ZIZIPHUS JUJUBA MILL., O'SIMLIGINING INTRODUKSIYASI

U.T.Azilova – doktorant

A.B.Ajiev – biologiya fanlari doktori (DSc)

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: introduksiya, flora, anemiya, pulpa, chaylon, astma, chechak, gipertoniya.

Ключевые слова: интродукция, флора, анемия, пульпа, чойлон, астма, оспа, гипертоническая болезнь.

Key words: introduction, flora, anemia, pulp, choylon, asthma, smallpox, hypertension.

Bugungi kunda o'simliklar olamiga kuchli salbiy ta'sirlar ko'rsatilayotgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi florasining bioekologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, inson xo'jalik faoliyatiga foydali o'simliklarni shu jumladan *Ziziphus jujuba* Mill., (chilonjiyda) istiqbolli o'simlik turlarini ilmiy jihatdan tatbiq etish, o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitini inobatga olgan holda istiqbolli chilonjiyda turlarini introduksiya qilish orqali biz Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining sa'lbiy ta'sirini kamaytirishga erishamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-sonli "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarori 09/21/545/0832-sonli respublikaning tuproq-iqlim sharoitlariga mos limon, unabi va grek yong'og'ining serhosil, kasalliklarga chidamli, eksportbop yangi navlarini yaratish bo'yicha seleksiya ishlarini jadallashtirish, yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va amaliyotga yangi navlarni joriy etishni nazarda tutgan ilmiy loyihalar belgilangan tartibda kiritilishini taminlashda chilonjiyda